

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA IQTISODIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI**Shomirzayeva Nargiza Sherali qizi***Namangan davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazarariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2-kurs magistiranti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish masalalari, ulkan iqtisodiy o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi davrda matematikaning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit So'zlar : *iqtisodiy, matematik, statistik, lingvist, qiymat, chastota, nisbiy chastota, moda.*

Abstract: *This article provides information on the issues of economic literacy formation in elementary school mathematics classes, the importance of mathematics in the current period of huge economic changes.*

Key Words : *economic, mathematical, statistical, linguistic, value, frequency, relative frequency, fashion.*

Аннотация: *В статье представлена информация по вопросам формирования экономической грамотности на уроках математики в начальной школе, о значении математики в современный период огромных экономических перемен.*

Ключ Слова: *экономический, математический, статистический, лингвистический, ценность, частота, относительная частота, мода.*

KIRISH

Ulkan iqtisodiy o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi davrda matematikaning ahamiyati yanada oshdi, shuning uchun ham matematik ta'lim katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Respublikamiz hukumati yoshlarga ta'lim va tarbiya berish tizimini takomillashtirish, ta'lim va tarbiyani turmushning oshib borayotgan talablari darajasiga etkazish vazifasini qo'ydi

Matematik bilim va ko'nikmalar amalda barcha kasblarda zarur. Avvalo, albatta tabiiy fanlar, texnika va iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lganlarida. Matematika tabiatni o'rganish va texnika tili bo'ladi, shuning uchun ham tabiatni o'rganuvchi va muhandisning kasbi bu fanga asoslangan ko'pgina kasbiy ma'lumotlarni jiddiy egallashni talab qiladi. Hozirgi vaqtda matematik bilimlarni qo'llash shifokorga, lingvistga, tarixchiga, biologga va bu ro'yxatni to'xtatish mushkul, zarurligi gumon qoldirmaydi. Bizning davrimizda matematik ta'lim kasbiy faoliyat uchun shunchalik muhim. Demak, matematika va matematik ta'lim yuqori sinf o'quvchilarini bo'lg'usi kasbiga tayyorlashda zarur.

Iqtisodiy – statistik mazmundagi masala deb, ma'lum bir iqtisodiy yoki statistic tushunchani yoki uni yoritib beruvchi axborotni o'z ichiga olgan masalaga aytiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich matematika kursida o'rganilishi mumkin bo'lgan eng soda iqtisodiy tushunchalar quyidagilar: tejamkorlik, ish unumi, mahsulotning narxi, bahosi, sifati, foyda, iqtisod kabilar bo'lib, statistikaga oid dastlabki tushunchalar: kuzatuv va ma'lumot to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tartiblash, variatsion qator, o'rta arifmetik qiymat, chastota, nisbiy chastota, moda, jadval va diagrammalardan iborat.

NATIJALAR

Bunday mazmundagi masalalarni boshlang'ich sinf matematika darsliklarida uchratish mumkin, lekin ularning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish va o'quvchilarning iqtisodiy ongini shakllantirishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tarbiyaning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni tejamkorlikka o'rgatishdir. Atrofimizdagi barcha predmetlar: jonli va jonsiz tabiat, uy – ro'zg'or buyumlari, maktab jihozlari, shaxsiy buyumlar va boshqalarni avaylab – asrash, buzmaslik, sindirmaslik, yirtmaslik, atrof- muhitni ozoda saqlash, ehtyotlik bilan munosabatda bo'lish kerakligini bolalar ongiga singdirib boorish kerak. Bu vazifa matematika darslarida iqtisodiy – statistik masalalarni yechish orqali amalga oshiriladi.

Quyidagi masalani ko'raylik:

Maktab oshxonasidagi 1 kunlik non qoldiqlari 1 kg ni tashkil etdi. Agar har kuni shunchadan non qoldiqlari qolsa, 210 o'qish kunida qancha non isrof bo'ladi? Shunch nonni o'rtacha oila necha kun iste'mol qilishi mumkin?

Bu masalani yechish uchun o'rtacha oila tushunchasini oydinlashtirish va bunday oila bir kunda qancha non iste'mol qilishini aniqlash kerak bo'ladi.

Yechish:

$$1.kg*210 = 210 kg$$

2. O'rtacha oila tushunchasini oydinlashtirish uchun har bir o'quvchining oila a'zolari sonini aniqlaymiz. Olingan natijalarni ketma – ket yozib olamiz:

3, 10, 4, 3, 2, 5, 4, 5, 4, 4, 4, 8, 5, 5, 4, 3, 6, 4, 4, 5, 6, 4.

Variatsion qator tuzamiz:

Oila a'zolari soni 2 3 4 5 6 8 10

Oilalar soni 1 3 9 5 4 1 1

Darsdan keyin sinf xonasida 500 gr qog'oz chiqindilari qolgani ma'lum bo'ldi, Agar har kuni shunchadan qog'oz isrof bo'lsa, 210 o'qish kunida qancha qog'oz isrof bo'ladi? Agar 1 ta daraxtdan 50kg qog'oz olinsa, bu tashlangan qog'ozlar qancha daraxtni kesilishdan asrab qolishi mumkin edi? Matematika darslarida iqtisodiy masalalarni hal qilishga o'rgatish kelajakda oila byudjetini yanada oqilona rejalashtirishga yordam beradi. Asosiysi, iqtisodiy fikrlashni rivojlantirish: muammoni ko'rish, uni tahlil qilish va oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Quyidagicha masalarni tuzish mumkin.

XULOSA

Iqtisodiy statistik masalalarni yechishga oʻrgatish yuqori sinflarga oʻtganda iqtisodiy bilim asoslarini oʻrganishga zamin yaratadi. Tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish bilan iqtisodiy nazariyani oʻrganish kelajakda biznesda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Iqtisod qilishga oʻrganish esa kelajakda oila byudjetini yanada oqilona rejalashtirishga yordam beradi. Oʻquvchilarda zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy, statistik kompetensiyalarni shakllantirish, mantiqiy masalalarni hal qilish jarayonlari oʻquvchilarning kasb tanlash qobiliyatini muammolarni oson hal qilish usullarini shakllantiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. “2017 – 2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi”. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasida taʼlim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5712-son qarori.
4. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Muxitdinova M.N., Toshpoʻlatova M.I. Matematika. TDPU. (Boshlangʻich taʼlim va sport-tarbiyaviy ish bakalavriyat taʼlim yoʻnalishi talabalari uchun darslik) Toshkent-2014, 365 bet
5. Akramjon Oʻktamjonovich Mirzayev, Odina Davronbek Qizi Pozilova. Matematika fanini oʻqitish samaradorligini oshirishda TIMSS xalqaro tadqiqotining oʻrni. Academic Research in Educational Sciences. VOLUME 3 | ISSUE 4 | 2022. P.75